



## OTA-ONALARNING FARZAND TA'LIM-TARBIYASIDA MAS'ULIYATI VA UNING IJTIMOIIY AHAMIYATI

Xalqaro innovatsion universiteti 2 kurs magistratura talabasi

**Hakimova Nafisa Muxiddin qizi**

**Annotatsiya:** Bugungi kunda farzand tarbiyasi nihoyatda nozik masala bo'lib bu borada juda ko'p allomalarimiz, olimlarimiz o'zlarining fikr-mulohazalarini bildirishgan. Albatta biz maqolada imkon qadar farzand tarbiyalashda ota-onalarning funksional vazifalarini ilmiy jihatdan tahlil qilib berishga harakat qildik.

**Kalit so'zlar:** Farzand, ota, ona, oila, jamiyat.

**Абстрактный:** Сегодня детское образование является чрезвычайно чувствительным вопросом, многие ученые высказали свое мнение по этому поводу. Безусловно, в статье мы попытались научно проанализировать функциональные задачи родителей в воспитании детей.

**Ключевые слова:** Ребенок, отец, мать, семья, общество.

**Abstract:** Today, children's education is an extremely sensitive issue, and many scholars have expressed their opinion on this matter. Of course, in the article we tried to scientifically analyze the functional tasks of parents in raising children.

**Key words:** Child, father, mother, family, society.

XXI asr – intellektual asr. Bilimsizlik – salomatlikka tahdidlardan biri sifatida Jahon sog'liqni saqlash standartiga kiritilgan. Bundan chiqadi-ki, ota-onalarning va bolalarining kasal bo'lishlariga asosiy sabablaridan biri ota-onalarda tibbiy bilimlarning yetishmasligi ekan. Demak, qaysi ota-onalar o'zini sog' bo'lay, bolalarini sog' bo'lishsin, desa, tibbiy bilimlarga ega bo'lishi kerak. Kim bo'lay, desa, iqtisodiy bilimlarga, xususiyl mulkning mustahkam himoyasini o'ylasa, huquqiy bilimlarga ega bo'lishi kerak bo'lib chiqadi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, tibbiy bilimsizlik – salomatlikka tahdid ekan, pedagogik bilimsizlik – barkamol avlod tarbiyasiga tahdid, desak to'g'ri bo'ladi. Kim bolasini Vataniga sodiq, fidokor, baxtli inson etib tarbiyalamoqchi bo'lsa, pedagogik bilimlarga ega bo'lishi kerak. Albatta ta'biri joyiz bo'lsa aytishim lozimki “ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburlar”, deyilmoqda. Bu yerda ikkita majburiyat bor. Biri – boqish, ikkinchisi – tarbiyalash. Bizda bola boqish muammosi, ya'ni bolamganimaydirib-ichirsam ekan, degan muammo yo'q. Buning tasdig'iga mamlakatimizda har ikkinchi oilada mashina turgani; AQShning Kaliforniya



## Learning and Sustainable Innovation

universiteti olimlari o'tkazgan tadqiqotlarda jahonning eng baxtli 158 ta mamlakati orasida O'zbekistonimizning 44-o'ringa chiqqanining o'zi javob. Farzand – oilani mustahkamlovchi oliy mo'jiza. Ota-onaning bir-birlariga samimiy munosabati, o'zaro hurmati farzandlar tarbiyasiga ijobiy ta'sir qilgani kabi ularning nojo'ya hatti-harakatlari, betakallufligi oiladagi o'zaro munosabatlarning buzilishiga, farzandlar tarbiyasida bo'shliqning paydo bo'lishiga olib keladi. Farzandlar o'z uylarida kuzatgan ma'naviy muhitdan nusxa oladilar. “Oiladagi ma'naviy muhit va tarbiya tufayli bola yo mehribon va rahmdil, yoki xudbin va bag'ritosh” bo'lib o'sadi. Ma'lumki, tarbiyaning aniq qoidasi yo'q. Ba'zi ota-onalar muloyimlik, og'ir-bosiqlik bilan, kimdir qattiqqo'llik, tahdid bilan bolani to'g'ri yo'lga solishga harakat qiladi. Nazarimizda ota-onaning vazifasi bolaga faqat nima qilish lozimligini anglatish emas, nima yaxshiyu, nim yomonligini bildirishni ham taqozo qiladi. Farzandi nimaga qiziqadi, qanday muammolari bor, do'stlari kimlar? Bu haqda har-bir ota-ona bilishi lozim. Har kuni farzandi bilan suhbatlashish uchun vaqt ajratishi, ular bilan sirdosh bo'lishi va hamisha shaxsiy namuna ko'rsatishi kerak. Buning uchun ota-onalar o'z zimmalarida mas'uliyatni his etishlari talab etiladi. Oilada ayrim ota-onalar farzandlari biron bir yomon ish qilib qo'ysa, uni qattiq jazolash, taqiqlash va uydan chiqarmay qo'yish usullari orqali tarbiyalamoqchi bo'ladi. Farzandi o'zlariga yoqadigan ishga qo'l ursa, maqtovga erk berib mukofotlaydi. O'zlari qo'llayotgan usullarni qaybiri to'g'ri, qay biri noto'g'ri ekanligi haqida esa o'ylab ham ko'rmaydilar. O'zlaricha tarbiyada qattiqqo'llik muhim deb hisoblashadi. Natijada o'zlari bilmagan holda bolalarining tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ota-ona eng avvalo oilada bolalarni tarbiyalash to'g'risidagi nazariy va amaliy bilimlarga ega bo'lishi lozim bo'ladi. Buning uchun esa ular tarbiya to'g'risidagi pedagogik va psixologik kitoblarni, gazeta va jurnallar, teledasturlar bilan tanishib borishlari lozim bo'ladi. Kuzatishlarimizga qaraganda, oilalarda ota-ona hamda farzand o'rtasidagi munosabatlarda ham o'ziga xos samarasiz usullardan foydalanilayotganligi ko'zga tashlanmoqda. Jumladan, ota-onalar ba'zan farzandlariga o'ta-darajada mehr ko'rsatadi, keragidan ortiq mehr qo'yishadi. Istagan narsasini muhayyo qilishga intilishadi. Bir qarashda, hammasi to'g'ri, bolasiga g'amxo'rlik qilish ota-onaning burchi, deyish mumkin. Ming afsuski, bunday munosabat bolalarda salbiy xislatlarning shakllanishiga olib kelmoqda. Binobarin, manmanlik, birovlarini mensimaslik, tayyorga-ayyorlik, mehnatning qadriga yetmaslik, sabr-toqatsizlik kabi salbiy xislatlar ana shunday “mehribonlik” mevasidir. Bunday ruhda tarbiyalangan bolalar muammoli vaziyatlarda mustaqil fikr yuritish, muayyan qarorlarga kelish borasida ham qiyinchiliklarga uchraydi. Qolaversa, o'z tengqurlari bilan kelisha olmasliklari, do'stlari doirasining torligi sabab



ko‘pincha yakkalanib qolishadi. Bu esa ayrim noqis kimsalarga qo‘l kelishi, ularni turli oqimlarga, jinoyat ko‘chasiga kirib qolishiga sabab bo‘lishi mumkin. (E‘tibor bersangiz, giyohvandlar, turli oqimlar ko‘p hollarda o‘ziga to‘q oilalarning farzandlarini nishonga olishadi). Bugungi kunda o‘zbek oilasida ota-onalar tomonidan tarbiyada qaysi usullar qo‘llanilishi, oilada ota-onalarning mas‘uliyati qay darajada ekanligini aniqlash maqsadida tadqiqot o‘tkazildi. “Kelajakda qurilajak oilangiz o‘z oilangizga o‘xshashini istarmidingiz?” mazmundagi savolga farzandlarning qariyb 35 foizi o‘z oilasidagi muhitdan qoniqmasligini bayon qilishgan. Xo‘sh, bu nimadan dalolat? O‘sha oilalarning notinchligidan, farzandlarning o‘z ota-onalari xulq-atvoridan qoniqmasligidan dalolat emasmi?! Tadqiqot mobaynida olingan natija va xulosalarga binoan bolada xulq og‘ishi, turli yotg‘oyalarga berilishi, boshqalar ta’siriga tushish, ota-onasidan uzoqlashish, o‘zboshimchalik, daydilik kabi salbiy xulq-atvor ko‘rinishlari yuzaga kelishi oiladagi ota-ona munosabatlarining ta’siri kuzatildi. “Ota-onangizni sizning ta’lim-tarbiyangiz bilan qiziqadimi?” savoliga Respublika bo‘yicha 7950 ta umumta’lim maktablarining 207111 nafar o‘quvchilardan 155693 nafari “doim qiziqadi”, 39249 nafari “vaqti bo‘lsa qiziqishadi”, 6353 nafari “eshitishni xohlamaydi”, 6145 nafar i “qiziqmaydi” deb, javob berishgan. Ushbu ko‘rsatgichlardan ko‘rinadiiki, eng yuqori ko‘rsatgich “doim qiziqadi” javobiga to‘g‘ri keldi (155693). Ammo “vaqti bo‘lsa qiziqishadi” (39249), “eshitishni xohlamaydi” (6353), “qiziqmaydi” (6145) kabi javoblar ko‘rsatgichining yuqoriligi bu sohada ham qator muammolar mavjudligidan dalolat beradi. Shundan kelib chiqib, ota-onalar o‘rtasida oilada bolalar tarbiyasi bilan shug‘ullanish borasida yo‘l-yo‘riq berish, tushuntirishlarini olib borish hamda amaliy ishlarni yo‘lga qo‘yish zarurati yuzaga keladi va talab etiladi. “Oilangizdagi muhitni qanday baholaysiz?” savoliga Respublika bo‘yicha 7950 ta umumta’lim maktablarining 207111 nafar o‘quvchilardan 124600 nafari “namunali”, 65642 nafari “yaxshi”, 11685 nafari “bilmadim”, 4931 nafari “notinch” deb, javob berishgan. Ushbu ko‘rsatgichlardan ko‘rinadiki, garchand eng yuqori ko‘rsatgich bo‘lmasda, ammo, “notinch” (4931), “bilmadim” (11685) kabi javoblar ham ko‘zga tashlanadi. o‘quvchilardan “namunali”, “yaxshi”, “bilmadim”, va ayniqsa “notinch” deb, belgilangan javob kuzatiladi. Butabiiyki, o‘znavbatida oilalarda sog‘lom muhitni shakllantirish masalasiga panja orasidan qaramaslik va buning uchun ota-onalarning oila oldidagi burchini doimiy uqtirib borish muhim ekanligini bildiradi. Ushbu raqamlar shundan dalolat beradiki, ota-onalarning farzandlar tarbiyasi bilan shug‘ullanishlarida muammolar mavjud. Ota-onalarning o‘zlari farzandlariga oilam muhitida hamisha odob-ahloq qoidalariga rioya etishni muntazam ravishda uqtirib, o‘rgatib borishlari, buning uchun ota-onalarning tarbiyaviy mas‘uliyatini oshirish



zarurligi ko‘rindi. Ulug‘lardan biri «Nobop farzand ortiqcha barmoqqa o‘xshaydi, kesib tashlasang og‘ritadi. Kesmasang, har joyda izza qilib, yuzingni yerga qaratadi» - degan ekan. Yoshlarni tarbiyalash bobida qaerda, qachon, qanday xatoliklarga yo‘l qo‘ymaslikni bilish ota-onalar, kattalarning zimmasidadir. “Ota-ona - san’atkor, bola – san’at asari, tarbiya jarayoni esa san’atningo‘zidir”, -deyilgan. Shunday ekan, farzandning har jihatdan komil inson bo‘lib yetishishida ota-onalarning tarbiya masalasi azaliy ahamiyat kasb etadi.

#### ADABIYOTLAR RO‘YXATI: REFERENCES

1. С.Х.Таджиева, Д.Ғ.Сабинова “Танглик вазиятида қолган болага психологик ёрдам кўрсатиш”. Т.: РБИММ, 2011 й. 142 б
2. Pulatov Sh.N.Sankhya-ancient Indian philosophical school. //PUSTAK BHARATI RESEARCH JOURNAL// JAN-June. ISSUE Toronto, Canada. No: 1-2, 2020.
- 3.PULATOV SH.N. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Hindistondagi ijtimoiysiyosiy vaziyat. Academic Research In Educational Sciences. Volume 1. 2020 468- 474 P.
- 4.Po‘latov, Sh.N., Rabindranat Tagorning Hindiston ilm-ma’rifatga qo‘shgan xissasi.// “SCIENCE AND EDUCATION” Scientific journal Volume 1, Special issue 2020 136-144 P.
- 5.Po‘latov, Sh.N., Hindistonda pedagogik ta’limning rivojlanish bosqichlari. //“SCIENCE AND EDUCATION” Scientific journal Volume 1, Special issue 2020 21-27 P.
- 6.Jurayev SH.S., Abu Ali ibn Sinoning falsafiy qarashlarida baxt-saodat masalasi // Academic Research in Educational Sciences, 2 (Special Issue 1), 395-401 P.
- 7.Saidov S.A., Ibn al-Muqaffaning islom tarjima san’atiga qo‘shgan hissasi. // “Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences” Scientific journal Volume 1, 2021. 332-336 P.